



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning 1-iyul holatiga Toshkent shahri doimiy aholisi soni 3 075,2 ming kishini tashkil etib, o'tkan yil boshiga nisbatan 34,4 ming kishiga yoki 101,1 % ga o'sdi.

Toshkent shahri tumanlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2024- yilning 1-iyul holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, %		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Toshkent shahri	3075,2	3075,2	-	101,1	101,1	-
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	300,7	300,7	-	100,4	100,4	-
Bektemir	62,9	62,9	-	104,0	104,0	-
Yunusobod	380,7	380,7	-	101,2	101,2	-
Mirzo Ulug'bek	333,8	333,8	-	100,8	100,8	-
Mirobod	153,3	153,3	-	100,7	100,7	-
Shayxontohur	367,1	367,1	-	100,5	100,5	-
Olmazor	408,1	408,1	-	100,9	100,9	-
Sergeli	170,8	170,8	-	101,5	101,5	-
Yakkasaroy	136,6	136,6	-	102,3	102,3	-
Yashnobod	305,1	305,1	-	101,7	101,7	-
Yangihayot	180,2	180,2	-	103,1	103,1	-
Chilonzor	275,9	275,9	-	100,3	100,3	-



Toshkent shahri tumanlari bo'yicha doimiy aholi sonining jinslari to'g'risida ma'lumot


(2024- yilning 1-iyul holatiga)

	Doimiy aholi soni, kishi		
	jami	shu jumladan:	
		Erkak	Ayol
Toshkent shahri	3 075 232	1 509 257	1 565 975
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	300 681	149 382	151 299
Bektemir	62 908	30 556	32 352
Yunusobod	380 731	184 887	195 844
Mirzo Ulug'bek	333 760	166 177	167 583
Mirobod	153 314	74 576	78 738
Shayxontohur	367 137	179 667	187 470
Olmazor	408 113	198 505	209 608
Sergeli	170 768	84 436	86 332
Yakkasaroy	136 623	67 211	69 412
Yashnobod	305 125	149 464	155 661
Yangihayot	180 215	87 772	92 443
Chilonzor	275 857	136 624	139 233



Toshkent shahri tumanlari kesimida 2024-yil 1-iyul holatiga eng ko‘p aholi soni Olmazor tumanida 408,1 ming kishini (Toshkent shahri aholi sonidagi ulushi (13,2%), kishini Yunusobod tumanida 380,7 ming kishini (12,4 %) va Shayxontohur tumanida 367,1 ming kishini (11,9 %) ni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2024-yil 1-iyul holatiga Toshkent shahri jami aholisiga nisbatan, foizda)




Toshkent shahrida aholining tabiiy harakati
ko‘rsatkichlari va koeffitsiyentlari
(yanvar-iyun)

Ko‘rsatkichlar	Kishi		1000 aholiga nisbatan	
	2023-yil	2024-yil	2023-yil	2024-yil
Tug‘ilganlar	38966	33305	26,4	21,9
O‘lganlar	6734	7924	4,6	5,2
shu jumladan: 1 yoshgacha o‘lgan bolalar				
Nikoh	8804	9000	6,0	5,9
Ajrim	3027	2935	2,0	1,9

Tug‘ilish. 2024-yil yanvar-iyun oylarida 33305 ta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, 2023-yilning mos davriga (38966 ta bola) nisbatan minus 5661 ta bolaga kamaydi, tug‘ilish koeffitsiyenti 21,9 promilleni tashkil etdi.



Aholining tug‘ilish koeffitsiyenti (2024-yil yanvar-iyun oylarida, 1000 aholiga, promille)



Tug‘ilish koeffitsiyentining sezilarli darajada o‘shishi Yashnobod (15,9 promilledan 18,0 promillega), tumanlarida qayd etildi.

Aksincha tug‘ilish koeffitsiyentining kamayishi Uchtepa (25,9 promilledan 17,7 promillega), Yakkasaroy (71,9 promilledan 48,2 promillega) tumanlarda kuzatildi.


O‘lim. 2024-yil yanvar-iyun oylarida o‘lganlar soni 7924 kishini tashkil etib, 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan (1190 kishi) ga ko‘paydi, mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 5,2 promilleni tashkil etdi (2023-yil yanvar-iyun 4,6 promille bo‘lgan).

O‘lim koeffitsiyenti yuqori darajasi 2023-yilga nisbatan Bektemir (3,7 promilledan 5,1 promillega) tumanida kuzatildi.

Ro‘yxatga olingan jami o‘lganlarning 57,1 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 14,7 % o‘simtalardan, 4,4 % ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 6,9 % nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 4,4 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,1 % yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 9,4 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.




2024- yilning yanvar-iyun oylarida o‘lganlarning asosiy o‘lim sababi bo‘yicha taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan foizda)



Nikoh va ajrimlar. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 9000 ta nikoh va 2935 nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,9 promilleni (2023-yil yanvar-iyun oylarida 6,0 promille bo‘lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,9 promilleni (2023- yil yanvar-iyun oylarida 1,9 promille bo‘lgan) tashkil etdi.

Nikoh tuzish va nikohdan ajralishlar koeffitsiyentlari

(2024-yil yanvar-iyun, 1000 aholiga, promille)






Nikoh va ajrimlar soni (yanvar-iyun)

(birlikda)

	Nikohlar		Ajrimlar	
	2023- yil	2024 -yil	2023 -yil	2024- yil
Toshkent shahar	8804	9000	3027	2935
<i>tumanlar:</i>				
Uchtepa	904	885	307	286
Bektemir	200	247	73	89
Yunusobod	1278	1173	415	416
Mirzo Ulug‘bek	875	833	338	301
Mirobod	419	417	164	178
Shayxontohur	904	1273	287	295
Olmazor	1016	977	332	315
Sergeli	656	660	235	224
Yakkasaroy	492	407	122	138
Yashnobod	772	784	344	297
Yangihayot	380	403	100	92
Chilonzor	908	941	310	304




Tumanlar kesimida 2024- yilning yanvar-iyun oylarida nikohlar soni bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Nikoh. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, tumanlar bo'yicha eng yuqori nikoh tuzish darajasi Shayxontohur tumanida 1273 ta, Yunusobod tumanida 1173 ta, Chilonzor tumanida 941 ta, Uchtepa tumaniga 885 ta to'g'ri keladi.

Tumanlar bo'yicha eng kam nikoh tuzish darajasi Bektemir 247 ta, Yangihayot 403 ta va 407 ta Yakkasaroy tumanlariga to'g'ri keladi.

Tumanlar kesimida 2024- yilning yanvar-iyun oylarida nikohdan ajralishlar soni bo'yicha taqsimlanishi, birlikda






Ajrim. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, tumanlar bo'yicha eng yuqori nikohdan ajralishlar darajasi Yunusobod 416 ta, Olmazor 315 ta, Chilonzor 304 ta, Yashnabod 297 ta, Shayxanrohur 295 ta va Uchtepa 286 ta tumanlariga to'g'ri keladi.

Tumanlar bo'yicha eng kam nikohdan ajralishlar darajasi Bektemir 89 ta, Yangihayot 92 ta va Yakkasaroy 138 ta tumanlariga to'g'ri keladi.

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi 2024- yil yanvar- iyun oylarida



2024-yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida jami nikohdan ajrashganlarning 41,8 foizi farzandsiz, 31,8 foizi bitta farzand bilan va 26,4 foizi ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahri bo'yicha ko'chib kelganlar soni 44605 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 35540 kishini tashkil etdi.

Shunga muvofiq, migratsiya saldosi plus 9065 kishini tashkil etib, 2023-yilning mos davrida 13058 kishini tashkil etgan.

Migratsiya saldosi yuqori darajasi Yangihayot (3347 kishi) tumanida qayd etildi.




Aholi migratsiyasi (yanvar-iyun)

(kishi)

	Kelish		Ketish		Migratsiya saldosi	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Toshkent shahri	46222	44605	33164	35540	13058	9065
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	3495	3151	3631	3709	-136	-558
Bektemir	1412	1736	607	749	-324	-142
Yunusobod	3975	4990	3333	3509	642	1481
Mirzo Ulug‘bek	4737	4234	3246	3489	1491	745
Mirobod	2577	2438	2250	2181	327	257
Shayxontohur	2598	2566	3390	3506	-792	-940
Olmazor	3455	3185	3062	3656	393	-471
Sergeli	4885	4810	2601	2998	2284	1812
Yakkasaroy	2061	1796	1947	1651	114	145
Yashnobod	7213	6611	2961	3343	4252	3268
Yangihayot	6051	5440	1874	2093	4177	3347
Chilonzor	3763	3648	4262	4656	-499	-1008

Aholining tabiiy va mexanik harakatlari to‘g‘risida ma’lumot (2024- yil yanvar- iyun, 1000 aholiga, promille)





STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.